



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 12 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 12

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 9, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2024

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№12 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2024-12>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Artur Gambaryan
yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW, ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Skripnikov Nikolay Kuzmich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salayev Nodirbek Saparbayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farxod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govverjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Xidoyatov Parvizbek Istamovich EKSPERIMENTAL TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY TABIATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	5
2. Ubaydullayev Abror Qutpilla o'g'li XIX-XX ASRLARDA ISLOM HUQUQIDA MOLIYA INSTITUTINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATGAN SIYOSIY-HUQUQIY JARAYONLAR.....	12
3. Хамдамова Фируза Уразалиевна ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....	23
4. Шорахимов Хусан Муроджон ўғли ҚУРИЛИШ СОҲАСИДА ДАВЛАТ НАЗОРАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	32
5. Abdullayev Jamshid Djamilovich TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA AYRIM SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNI FUQAROLIK HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	41
6. Восиев Жамшид Мустафоевич ИНСОННИНГ БИОМЕХАНИК ЎЗГАРИШИДА ШАФФОФЛИК ВА ЖАВОБГАРЛИКНИ ОШИРИШ УЧУН РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ.....	49
7. Ашурова Нилуфар Ўктамовна ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИНГ ҲИМОЯСИ: ЖИНОЯТЛАР ТУРЛАРИ ВА УЛАРГА НИСБАТАН ЖАВОБГАРЛИК.....	63
8. Давлетмуратов Султанмурат Рустемович АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА МЕҲНАТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖИНОИЙ ЖАВОБГАРЛИК: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ.....	75
9. Хайдаров Шухратжон Джумаевич ХАВФ ОСТИДА ҚОЛДИРИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ВА ЎХШАШ ЖИНОЯТЛАРДАН ФАРҚЛАШ МАСАЛАЛАРИ.....	82
10. Иброхимов Бахтиёр Тойиржонович ПРОКУРОРНИНГ ЖИНОЯТ ИШИ КЎЗГАТИШ БОСҚИЧИДА ФУҚАРОЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	90
11. Ширинкулов Бахтиёр Ифтихор ўғли ҚУРИЛИШДА МЕҲНАТ МУҲОФАЗАСИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ: СУБЪЕКТ ВА ЖАБРАНУВЧИ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	99
12. Xaydarov Mirsaid Mirjabborovich KUCHLI TA'SIR QILUVCHI YOKI ZAHARLI MODDALARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALAGA KIRITISHGA QARSHI KURASHISHNING AYRIM JIHATLARI.....	107




12.00.15-КРИМИНОЛОГИЯ (ЮРИДИЧЕСКИЕ НАУКИ)

Хайдаров Мирсаид Миржаббарович,
 O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
 Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti mustaqil izlanuvchisi
 E-mail: xaydarovmirislom2@gmail.com

**KUCHLI TA’SIR QILUVCHI YOKI ZAHARLI MODDALARNI QONUNGA XILOF
 RAVISHDA MUOMALAGA KIRITISHGA QARSHI KURASHISHNING AYRIM
 JIHATLARI**

For citation: Shirinkulov Bakhtiyor Iftikhor ugli. CERTAIN ASPECTS OF COMBATING THE ILLEGAL CIRCULATION OF STRONG-ACTING OR TOXIC SUBSTANCES. Journal of Law Research. 2024, 9 vol., issue 12, pp.107-114

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14259943>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada muallif tomonidan kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda rag‘batlantiruvchi normalarning ahamiyatiga oid huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalari o‘rganilib, ayrim xorijiy davlatlarning bu boradagi jinoyat qonunchiligi tahlil qilingan. Shu bilan birga, ushbu turdagi jinoyatlar uchun rag‘batlantiruvchi normalarni qo‘llash shartlari yuzasidan olimlarning fikrlari bayon qilingan, shuningdek, milliy jinoyat qonunchiligimizdagi rag‘batlantiruvchi normalar o‘rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kuchli ta’sir qiluvchi modda, zaharli modda, rag‘batlantiruvchi norma, rahbatlantiruvchi normani qo‘llash shartlari, javobgarlikdan ozod qilish, jazodan ozod qilish.

Хайдаров Мирсаид Миржаббарович,
 Самостоятельный соискатель факультета послевузовского образования
 Академии Министерство внутренних дел Республики Узбекистан
 E-mail: lolaradjapova8808@gmail.com

**НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ БОРЬБЫ С НЕЗАКОННЫМ ОБОРОТОМ
 СИЛЬНОДЕЙСТВУЮЩИХ ИЛИ ЯДОВИТЫХ ВЕЩЕСТВ**

АННОТАЦИЯ

В данной статье автором изучены мнения ученых-правоведов о значении стимулирующих норм в повышении эффективности борьбы с незаконным оборотом сильнодействующих или ядовитых веществ, проанализировано уголовное законодательство некоторых зарубежных стран в этой области. Наряду с этим, изложены мнения ученых об условиях применения

поощрительных норм для данного вида преступлений, а также исследованы и проанализированы поощрительные нормы в национальном уголовном законодательстве.

Ключевые слова: сильнодействующее вещество, ядовитое вещество, стимулирующая норма, условия применения стимулирующей нормы, освобождение от ответственности, освобождение от наказания.

Khaydarov Mirsaid Mirjabborovich,

Independent Researcher of the Faculty of Postgraduate Education
of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
E-mail: lolaradjapova8808@gmail.com

CERTAIN ASPECTS OF COMBATING THE ILLEGAL CIRCULATION OF STRONG-ACTING OR TOXIC SUBSTANCES

ANNOTATION

In this article, the author examines the opinions of legal scholars regarding the importance of incentive norms in improving the effectiveness of combating illegal trafficking of potent or toxic substances. The criminal legislation of some foreign countries in this area is also analyzed. Furthermore, the article presents scholars' views on the conditions for applying incentive norms to this type of crime. Additionally, the incentive norms in our national criminal legislation are studied and analyzed.

Keywords: potent substances, toxic substances, incentive norms, conditions for applying incentive norms, exemption from liability, exemption from punishment.

Ma'lumki, mamlakatimiz jinoyat qonunida shaxsning faol ijobiy xulq-atvorini rag'batlantirishga va shu orqali jinoyatni oldini olishga, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararni bartaraf etishga qaratilgan qator rag'batlantiruvchi normalar mavjud. Shaxs davlat tomonidan uning ijobiy xulqi inobatga olinishini anglashi tarbiyaviy omil sifatida xizmat qilib, qonunlarga rioya etishga undaydi[1,6]. Shu sababli ham amaldagi Jinoyat kodeksida rag'batlantiruvchi normalar belgilangan bo'lib, uning ahamiyati quyidagilarda, ya'ni:

- shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jazoni yengillashtirish yoki jinoiy qilmishning shaxs uchun noqulay bo'lgan boshqa jinoyat-huquqiy oqibatlarini bartaraf etish;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud tomonidan jinoyat qonuni normalariga muvofiq, sub'ektning jinoyat sodir etilganidan keyingi qonuniy faoliyatini davlat tomonidan ijobiy baholash va rag'batlantirishda ifodalanadi[2,18].

Shuningdek, rag'batlantiruvchi normalar adashgan, tasodifan jinoyat sodir etgan shaxslarga jinoiy jazoni ijro etish huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etmasdan turib, o'z xulq-atvorining tuzalganligini isbotlab, normal hayotga qaytish imkonini beradi[3,4]. Boshqacha aytganda, Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi rag'batlantiruvchi normalar muayyan jinoiy qilmishning tarkibiga xos xususiyatlar bilan bog'liq ijobiy xulqni rag'batlantirishning maxsus holatidir[4,29].

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat jinoyat-huquqiy siyosatining mutlaqo yangi ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirishda rag'batlantiruvchi normalarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-son qarori[5]ning 1-ilovasi bilan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi" tasdiqlandi.

Mazkur Konsepsiyaning 1-bo'lim (Jinoyat qonunchiligini takomillashtirish) 2-bob (Jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish) 6-bandida rag'batlantiruvchi normalarni, jumladan jazoni yengillashtirish yoki shaxsni jinoiy javobgarlik yoxud jazodan ozod qilish shartlarini o'rnatuvchi normalarni kengaytirish nazarda tutildi.

Shu o'ringa ta'kidlash lozimki, bugungi kunda amalda bo'lgan Jinoyat kodeksi Maxsus qismida nazarda tutilgan 285 ta moddaning 48 tasida (16,8 %) moddasida rag'batlantiruvchi normalar nazarda tutilgan bo'lib, muayyan talablar bajarilganda ularning 25 tasida (52,1 %) javobgarlikdan ozod qilish, 12 tasida (25 %) ozodlikni cheklash va ozodlikdan maxrum qilish tariqasida jazo qo'llanilmasligi, 4 tasida (8,3 %) ham ozodlikni cheklash va ozodlikdan maxrum qilish tariqasida jazo qo'llanilmasligi, ham javobgarlikdan ozod qilish, 5 tasida (10,4 %) jazodan ozod qilish, 2 tasida (4,2 %) esa ham jazodan, ham javobgarlikdan ozod qilish belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda, jinoyat qonunidagi rag'batlantiruvchi normalarni quyidagi toifalarga ajratishimiz mumkin bo'ladi:

- javobgarlikdan ozod qiluvchi;
- jazodan ozod qiluvchi;
- ma'lum bir turdagi jazodan ozod qiluvchi.

Ta'kidlash o'rinliki, jinoyat qonunining terrorism (155-m), terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish, chiqish yoki harakatlanish (155²-m), terrorismni moliyalashtirish (155³-m), davlatga xoinlik qilish (157-m), O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish (159-m), pora berish (211-m) va pora olish-berishda vositachilik qilish (212-m) kabi og'ir hamda o'ta og'ir jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan moddalarda ham rag'batlantiruvchi normalar nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining 273-moddasi (giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish) 6-qismida ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etgan shaxs o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish to'g'risida hokimiyat organlariga arz qilsa va giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni topshirsa, jazodan ozod qilinishini nazarda tutuvchi rag'batlantiruvchi norma mavjud. Bu esa o'z navbatida, giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi va iste'molining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rag'batlantiruvchi normalarni tadqiq qilgan qozoq olimasi A.A. Biebaeva asosli ta'kidlaganidek, jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy metodi sifatida jazoga urg'u berish ijobiy natija bermaydi. Shaxsni rag'batlantirish uning hulqini istalgan tomonga o'zgartirish metodi sifatida namoyon bo'lib, u jinoyat-huquqiy vositalar arsenalidan tushib qolishi kerak emas. Jinoyat qonunchiligida jazolovchi normalar bilan bir qatorda rag'batlantiruvchi normalar ham keng o'rin olishi lozim[6,55].

Rus olimi Yu.V. Gogik esa jinoyat huquqi majburlovsiz jinoiyligini to'xtatishi (ijtimoiy munosabatlarning hozirgi rivojlanish darajasida), rag'batlantirishsiz esa jinoiy sudlov o'z ma'nosini yo'qotishi, chunki, shaxsning o'z aybini yuvish uchun qilgan har qanday harakatlari agar u rag'batlantirilmasa asta-sekin yo'qqa chiqishi haqidagi fikrni ilgari suradi[7,45].

R.R. Shakurov ham yuqoridagi fikrlarga o'xshash fikr bildirib, haqli ta'kidlashicha, rag'batlantiruvchi norma bilan tartibga solingan ijobiy hulq-atvorning o'ziga xos xususiyati shundaki, u jamiyat uchun ham, davlat uchun ham, shaxsning o'zi uchun ham ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki, u jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jazodan to'liq yoki qisman ozod qilish, jazoni yengillashtirish va boshqa ijobiy huquqiy choralarni qo'llash imkonini beruvchi rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiluvchi turli xil ijobiy huquqiy oqibatlar yuzaga kelishi uchun asos bo'ladi[8].

Tahlil qilinayotgan jinoyat bo'yicha tadqiqot olib borgan rus olimi M.G. Yermakovning fikricha, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni o'z ixtiyori bilan topshirgan, bunday moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarga chek qo'yish yoki ochishda faol ishtirok etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi sud-tergov amaliyotining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi[9,10]. Shu bilan birga, uning haqli ta'kidlashicha, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarning noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilangan moddaga rag'batlantiruvchi normani kiritish lozim, bu esa shaxsning ijobiy hulq-atvorini rag'batlantirish imkonini beradi[9,10].

Bu borada tadqiqot olib borgan S.U. Toshniyozov ham kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgan va ma'lum bir talablarni bajargan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishiga oid qoidalarini kiritish[10,300] lozim degan xulosaga kelgan.

Mazkur masalada o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 91 foizi tahlil etilayotgan moddaga rag'batlantiruvchi norma kiritish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlashgan.

Bundan tashqari, xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligi tahlili ayrim davlatlar qonunchiligida ham ushbu jinoyatlar uchun rag'batlantiruvchi normalar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, Ukraina Jinoyat kodeksining 321-moddasida[11] kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli dori vositalarini o'z ixtiyori bilan topshirgan, ularni olish manbaini ko'rsatgan yoki ularning qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarning fosh etilishiga yordam berganlik uchun, Armaniston Jinoyat kodeksining 405-moddasida[12] kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni o'z ixtiyori bilan topshirgan, ularning qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni fosh etishda faol ko'maklashganlik uchun, Ozarbayjon Jinoyat kodeksining 240-moddasida[13] kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni o'z ixtiyori bilan topshirgan yoxud bunday moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarga chek qo'yish, ularni fosh etish yoki jinoiy yo'l bilan topilgan mol-mulkni aniqlashda faol ishtirok etganlik uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi rag'batlantiruvchi normalar belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagilarga tahlillarga asosan, fikrimizcha Jinoyat kodeksining 251¹-moddasiga quyidagi tahrirdagi rag'batlantiruvchi normani kiritish maqsadga muvofiq:

“Ushbu moddadaning birinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etgan shaxs o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish to'g'risida hokimiyat organlariga arz qilsa va kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni topshirsa, bunday moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarga chek qo'yish yoki ularni fosh etishda faol ishtirok etsa, jazodan ozod qilinadi”.

Bizningcha, tadqiq etilayotgan moddaga rag'batlantiruvchi normani kiritish jinoyat qonunining liberallashtirilishi va mamlakatimiz jinoyat-huquqiy siyosatining xalqaro-huquqiy siyosat bilan uzviy hamohangligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarning qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish, aniqlash, tez va to'la fosh etishda yuqori samara beradi.

Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurashish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi yana bir jihat bu, ushbu moddalarni o'tkazish maqsadisiz qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilash hisoblanadi.

Sud-tergov amaliyotidan ma'lumki, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni saqlash ularni shaxsan iste'mol qilish, to'satdan paydo bo'lgan qasd bilan o'tkazish yoki boshqa jinoyatni sodir etish vositasi sifatida foydalanish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mazkur masalaga e'tibor qaratgan V.Yu. Usovning fikricha, kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi yildan yilga ko'payib bormoqda. Bunga esa qonunchilikda kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni o'tkazish maqsadisiz qonunga xilof ravishda olish va saqlash uchun javobgarlik belgilanmaganligi kabi bir qator omillar sabab bo'lmoqda[14].

Bu borada tadqiqot olib borgan S.U. Toshniyozov kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof muomalaga kiritish uchun ma'muriy preyuditsiyaga ega jinoyat tarkibini kiritish[15,300] lozirligini ta'kidlagan. V.V. Kuxaruk ham mazkur qilmishlarning ijtimoiy xavfli ekanligini inobatga olib, ushbu moddalar bilan o'tkazish maqsadisiz qonunga xilof ravishda muomala qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilashni taklif etgan[16,195]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bugungi kunda kuchli ta'sir qiluvchi moddalarga ru'ju qo'ygan shaxslar soni kundan-kunga ko'payib, bunday moddalarning noqonuniy muomalasi yanada avj olishiga sabab bo'lmoqda. O'z navbatida, mamlakatimiz jinoyat qonunida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni o'tkazish maqsadisiz qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, egallash, tashish yoki jo'natish uchun javobgarlik belgilanmaganligi bunday moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishda kutilgan natijalarga erishish imkoniyatini cheklaydi.

Bu borada xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi o'rganilganda, ularning ayrimlarida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni o'tkazish maqsadi bo'lishidan qat'iy nazar qonunga xilof

ravishda tayyorlash, ishlab chiqarish, olish va boshqa harakatlar uchun javobgarlik belgilanganligi ma'lum bo'ldi. Xususan, Gruziya Jinoyat kodeksi[17]ning 261-moddasida (psixotrop moddalar, ularning analoglari yoki kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, ishlab chiqarish, olish, saqlash, tashish, jo'natish yoki o'tkazish) kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, ishlab chiqarish, olish, saqlash, tashish yoki jo'natganlik, shuningdek bunday moddalarni o'tkazganlik uchun, Latviya Jinoyat kodeksi[18]ning 248-moddasida (kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, muomalaga kiritish va jo'natish) tegishli ruxsatnomasiz giyohvandlik vositalari va psixotrop hisoblanmagan kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, muomalaga kiritish va jo'natish, shuningdek, bunday moddalarni tayyorlash, saqlash, berish, hisobga olish, tashish yoki jo'natish qoidalarini buzganlik uchun, Bolgariya Jinoyat kodeksi[19]ning 354-moddasi 1-qismida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni tegishli ruxsatsiz ishlab chiqirish, olish, saqlash, begonalashtirish yoki o'tkazish uchun, Vengriya Jinoyat kodeksi[20]ning 185-moddasida (samaradorlikni oshiruvchilar bilan bog'liq jinoyat) nazorat qilinuvchi preparatlar (kuchli ta'sir qiluvchi moddalar) ni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, egalik qilish, foydalanish, tarqatish, yetkazib berish, taklif qilish, retsept bo'yicha buyurganlik uchun, 188-moddasida (zaharli moddalardan foydalanish jinoyati) esa zaharli moddalarni tayyorlash, egalik qilish, foydalanish yoki tarqatish uchun javobgarlik belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, mutaxassislar bilan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra respondentlarning 90 foizi Jinoyat kodeksiga kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash va boshqa harakatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi norma kiritish lozimligini ta'kidlashgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlarning natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 5 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga giyohvandlik vositalarining, ular analoglarining yoki psixotrop moddalarning, shuningdek kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-971-son qonuni[21] qabul qilindi. Mazkur qonun bilan Jinoyat kodeksiga 251²-moddasida va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 56³-moddasida kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun javobgarlik belgilandi.

Biroq, Jinoyat kodeksiga kiritilgan 251²-moddada faqatgina alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risida"gi 818-son[22] va 2024 yil 4 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 632-son[23] qarorlariga asosan jami 79 nomdagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning faqatgina 5 tasi (tropikamid, pregabalin, zaleplon, siklopentolat va gabapentin) alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ro'yxatiga kiritilgan. Bu esa, qolgan 74 nomdagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun javobgarlikni istisno qiladi.

Fikrimizcha, kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning barcha turlarini o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar uchun javobgarlik belgilash bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan navbatdagi masala bu ushbu jinoyatni ko'p miqdorda sodir etganlik uchun javobgarlikni takomillashtirish hisoblanadi.

Kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning ko'p miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida ta'kidlab o'tilgan, 2019 yil 27 sentyabrdagi 818-son qarorining 1-ilovasi

bilan tasdiqlangan kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ro'yxatida[22] belgilab qo'yilgan. Misol uchun, pregabalin va prasteronning 10 grammdan, tropikamidning 1 grammdan, zaleplonning 0,5 grammdan ortig'i ko'p miqdorni tashkil qiladi.

Biroq, mamlakatimizning amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida zaharli moddalarning miqdor ko'rsatkichlari (oz miqdor, ko'p miqdor, juda ko'p miqdor) umuman nazarda tutilmagan. Bu esa o'z navbatida, huquqni qo'llash amaliyotida turli tushunmovchiliklarni vujudga keltiradi.

Aytish joizki, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalar qonunga xilof ravishda qancha ko'p miqdorda muomalaga kiritilsa, jinoyat-huquqiy muhofaza ob'ektiga shuncha ko'p zarar yetadi, bu esa o'z navbatida qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiradi.

Mazkur masalada ilmiy tadqiqot olib borgan M.G. Yermakov[24,8] haqli ravishda kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda juda ko'p miqdordagi muomalaga kiritganlik uchun jinoyatni og'irlashtiruvchi tarkibi sifatida javobgarlik belgilash taklifini ilgari surgan bo'lsa, S. Toshniyozov kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning miqdor toifalarini qayta ko'rib chiqish[15,300] lozimligini ta'kidlagan.

Ayrim xorijiy davlatlarning bu boradagi jinoyat qonunchiligining tahlili, Ukraina Jinoyat kodeksining 321-moddasi 4-qismida[11] kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalar yoxud kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli dori vositalarini, Gruzziya Jinoyat kodeksining 261-moddasi 8-qismi "a" bandida[17] va Ozarbayjon Jinoyat kodeksining 240-moddasi 3-qismi 3-1-bandida[13] esa kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni qonunga xilof ravishda juda ko'p miqdorda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilanganligini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, mutaxassislar bilan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 91 foizi Jinoyat kodeksining 251¹-moddasida jinoyatning alohida og'irlashtiruvchi tarkibi sifatida kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni juda ko'p miqdorda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilash lozimligini ta'kidlashgan.

Fikrimizcha, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni "ko'p miqdorda" qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi tarkibida, "juda ko'p miqdorda" qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlikni alohida og'irlashtiruvchi tarkibida javobgarlik belgilash bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Камалова Д.Г. Жиноят ҳуқуқида рағбатлантирувчи нормалар ва уларни жиноят содир этишдан ихтиёрий қайтишдан фарқли жиҳатлари. Юриспруденция. Илмий-амалий журнал. 2020 йил 1-жилд 1-сон. – Т., 2020. – Б. 6. (Kamalova D.G. Stimulating norms in criminal law and their differences from voluntary refusal to commit crimes. Law. Scientific-practical journal. 2020 Volume 1 Issue 1. - Тошкент, 2020. - Б. 6.)
2. Курбанов Д.Р. Жиноят қонунчилигини либераллаштириш шароитида жиноий жавобгарликни қўллаш муаммолари. Дисс. ... юрид.фан.номзод. –Т.: – Б. 18.(Kurbanov D.R. Problems of applying criminal liability in the context of liberalization of criminal legislation. Diss.... candidate of jurisprudence. -Т.: - Б. 18.)
3. Ниязова Ш.Г. Муддатларнинг ўтганлиги муносабати билан жиноий жавобгарлик ва жазодан озод қилиш муаммолари. Дисс. ...юрид.фан.номзод. –Т. – Б. 4.(Niyazova Sh.G. Problems of exemption from criminal liability and punishment in connection with the expiration of the term. Diss....legal sciences candidate. - Т. - Б. 4.)
4. Шакуров Р.Р. Жиноят ҳуқуқида рағбатлантирувчи нормаларнинг тузилиши ва қўлланилиши: ўқув қўлланмаси. – Т. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2006. – Б. 29.(Shakurov R.R. Structure and application of incentive norms in criminal law: Textbook. - Т.: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2006. - Б. 29.)
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 майдаги “Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилиги тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3723-сон қарори.(Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 14, 2018

- No. RP-3723 "On measures to radically improve the system of criminal and criminal procedural legislation.")
6. Биебаева А.А. Поощрительные нормы в уголовном праве Республики Казахстан. Право и государство, – № 3 (64), 2014. – С 55. (Biyebayeva A.A. Stimulating Norms in Criminal Law of the Republic of Kazakhstan. Право и государство, - No 3 (64), 2014. - Б. 55.)
 7. Голик Ю.В. Уголовно-правовое стимулирование позитивного поведения: вопросы теории. Новосибирск: Изд-во Новосибирского университета, 1992. – С. 45.(Golik Yu.V. Criminal law stimulation of positive behavior: theoretical issues. Novosibirsk: Novosibirsk University Press, 1992. - p. 45.)
 8. Шакуров Р.Р. Уголовно-правовое регулирование позитивного поведения: Монография. – Т.: Центр повышения квалификации юристов при Министерстве юстиции Республики Узбекистан, 2019. – С. 10. (Shakurov R.R. Criminal Law Regulation of Positive Behavior: Monograph. - T.: Center for Advanced Training of Lawyers under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, 2019. - p. 10.)
 9. Ермаков М.Г. Субъективная сторона незаконного оборота сильнодействующих или ядовитых веществ. // Наркоконтроль. 2016. – № 3. – С. 10. (Ermakov M.G. The subjective aspect of illegal trafficking in potent or poisonous substances. // Drug Control. 2016. - No. 3. - p. 10.)
 10. Тошниёзов, С. 2023. Ответственность за незаконный оборот сильнодействующих и ядовитых веществ в Узбекистане, Азербайджане и Грузии: сравнительно-правовой анализ. Общество и инновации. 4, 6/S (авг. 2023), – Б. 295–301. (Toshniyozov, S. 2023. Responsibility for the illegal trafficking of potent and poisonous substances in Uzbekistan, Azerbaijan and Georgia: comparative legal analysis. Society and Innovations. 4, 6/S (Aug. 2023), - pp. 295-301.)
 11. Уголовный кодекс Украины от 5 апреля 2001 года № 2341-III (с изм. и доп. по состоянию на 28.07.2022 г.). (Criminal Code of Ukraine dated April 5, 2001 No. 2341-III (with amendments and additions as of July 28, 2022).)
 12. Уголовный кодекс Республики Армения от 5 мая 2021 года № ЗР-199-Н (Criminal Code of the Republic of Armenia dated May 5, 2021 No. ZR-199-N).
 13. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики от 30 декабря 1999 года № 787-IQ (с изм. и доп. по состоянию на 05.11.2022 г.) (Criminal Code of the Republic of Azerbaijan dated December 30, 1999, No. 787-IQ (with amendments and additions as of November 5, 2022).).
 14. Усов В.Ю. Нормативно-правовые проблемы борьбы с незаконным оборотом сильнодействующих и ядовитых веществ. Научный журнал NovaUm.Ru - №30 2021 г. –С.67. (Usov V.Yu. Normative and legal problems of combating illegal trafficking of potent and toxic substances. Scientific journal NovaUm.Ru - No. 30 2021. - P. 67)
 15. Тошниёзов, С. 2023. Ответственность за незаконный оборот сильнодействующих и ядовитых веществ в Узбекистане, Азербайджане и Грузии: сравнительно-правовой анализ. Общество и инновации. 4, 6/S (авг. 2023), – Б. 295–301. (Tashniyozov S. 2023. Responsibility for illegal trafficking of harmful and toxic substances in Uzbekistan, Azerbaijan and Georgia: a comparative legal analysis. Society and Innovations. 4, 6 / S (August 2023), - P. 295-301.)
 16. В.В.Кухарук. Уголовно-правовые и криминологические проблемы борьбы с организованным незаконным оборотом сильнодействующих или ядовитых веществ в целях сбыта: дисс. ... канд. юрид. наук. –М.:, 2000.– 234 с. (Kukharuk V.V. Criminal-legal and criminological problems of combating organic illegal trafficking of potent or nuclear substances for the purpose of marketing: diss. ... candy. go science -M .:, 2000 .- 234 p.)
 17. Уголовный кодекс Грузии от 22 июля 1999 года № 2287. (Criminal Code of Georgia of July 22, 1999, No. 2287.) <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/16426?publication=241>.
 18. Уголовный кодекс Латвии от 17 июня 1998 года. (Criminal Code of Latvia of June 17, 1998.) <https://likumi.lv/doc.php?id=88966>.
 19. Уголовный кодекс Республики Болгария от 15 марта 1968 года. (Criminal Code of the Republic of Bulgaria 15.03.1968.) <https://www.wipo.int/wipolex/ru/text/445836>.
 20. Criminal code of Hungary. Promulgated on 13 July 2012. <https://batki.info/wp-content/uploads/2018/08/new-criminal-code.pdf>.

21. Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 5 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасининг Жиноят, Жиноят-процессуал кодексларига ҳамда Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига гиёҳвандлик воситаларининг, улар аналогларининг ёки психотроп моддаларнинг, шунингдек кучли таъсир қилувчи ва захарли моддаларнинг қонунга хилоф муомаласига қарши курашишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги ЎРҚ-971-сон Қонуни. (Amendments and additions to the Criminal, Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and the Code of Administrative Responsibility of the Republic of Uzbekistan dated October 5, 2024, aimed at combating the illegal trafficking of narcotic drugs, their analogues or psychotropic substances, as well as potent and toxic substances in accordance with Law No. ORQ-971.) <https://lex.uz/docs/7131778>.

22. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 27 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасида кучли таъсир қилувчи моддалар муомаласини тартибга солиш тўғрисида”ги 818-сон қарори. (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated September 27, 2019 No. 818 "On the regulation of the circulation of potent substances in the Republic of Uzbekistan.") <https://lex.uz/docs/4532164>.

23. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 4 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасида алоҳида тоифадаги кучли таъсир қилувчи моддалар муомаласини тартибга солиш тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 632-сон қарори. (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated October 4, 2024 No. 632 "On approval of the regulation on the circulation of special categories of potent substances in the Republic of Uzbekistan") <https://www.lex.uz/uz/docs/7132128>.

24. Ермаков М.Г. Уголовно-правовая характеристика незаконного оборота сильнодействующих и ядовитых веществ: автореф. дис. ... кан. юрид. наук. Омск, 2014. – 19 с. (Ermakov M.G. Criminal-legal characteristics of illegal trafficking of a potent and toxic substance: author's abstract. dis. ... can. go science Omsk, 2014. - 19 p.)



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 12 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 12

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 9, ISSUE 12

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000